FARG‘ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMI QARORI

2024 - yil 23 - aprel 81-11-153-Q/24 Beshariq tumani hokimligi

Beshariq tumani Abdurazzoq ota MFY hududidan kesib o‘tuvchi umumfoydalanuvda bo‘lgan avtomobil yo‘liga yo‘l harakati qoidalarining 3.27 yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida

Tuman markaziy qatnov qismi bo‘lgan yo‘llarda, ayniqsa, Abdurazzoq ota MFY hududida yo‘l-transport hodisalarining sodir etilishi va tirbandlikning hosil bo‘lishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish asosida yo‘l harakati qoidalari buzilishi profilaktikasi, yo‘l-transport hodisalari va yo‘llar bandligining oldini olish, yo‘llarni saqlash va ularni yo‘l belgilari, axborot ko‘rsatkichlarini o‘rnatish, ushbu orqali yo‘l harakatini tartibga solish hamda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-son “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN

1.Tuman Ishchi guruh tomonidan tuzilgan dalolatnoma hamda chizma ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman yo‘nalishida bo‘lgan avtomobil yo‘llarining 4K-904 “KFK-Rapqon-Vorux” avtomobil yo‘lining 1-2 kilometr oralig‘iga 2 ta hududga yo‘l harakati qoidalarining 3.27-bandlarida belgilangan “Transport vositalarining to‘xtashi va to‘xtab turishi ta’qiqlanadi” deb belgilangan yo‘l belgilari va yo‘l harakati qoidalarining 7.2.2-bandida ko‘rsatilgan “Qo‘shimcha axborot ishora” yo‘l belgisi bilan qo‘shib o‘rnatilsin (3.27 — 3.30 belgilarining amal qilish oralig‘i oxiriga 3.27 — 3.30 belgilari 7.2.3 qo‘shimcha axborot belgisi bilan birga takror o‘rnatiladi yoki 7.2.2 qo‘shimcha axborot belgisi bilan qo‘llaniladi).

3.Tuman Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi guruhi rahbari A.Anvarov, Beshariq tuman Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi rahbari Z.Nazirov, tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i Sh.Tursumatovlarga vakolatlari doirasida kelishuv asosida yo‘l belgilarini me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan ko‘rinishda, balandlikda o‘rnatilishini ta’minlash;

Yo‘llarni saqlash va ularni yo‘l belgilari, axborot ko‘rsatkichlari, yo‘l harakatini tartibga solishning boshqa vositalari bilan jihozlash bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

4.Tuman “Beshariq tongi” gazetasi bosh muharriri S.Temirovga, mazkur qarorni tuman gazetasida chop etish vazifasi topshirilsin.

5.Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiritilsin.

6.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **R.K.Jo'rayev**